

SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO HUQUQ NORMALARI (TEZIS)

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti”

yo'nalishi Magistratura talabasi

Telefon:+99894 338 69 99 jasurbekkbozorovqash@gmail.com

Anotatsiya

Har bir mustaqil demokratik davlatning milliy qonunchiligi, eng avvalo, umume'tirof etilgan xalqaro normalarga asoslangan bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ham Biz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz¹, - deb keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq normalari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fakultativ protokoli, Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill,

Shaxsiy hayot daxlsizligini gapirar ekanmiz, ushbu o'rinda xalqaro huquq normalarining ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Ulardan birinchilari sifatida beixtiyor *1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha umumjahon Deklaratiyasini* misol qilib keltirishimiz mumkin. Endilikda ushbu hujjatga e'tiborimizni qaratsak. Dunyo mamlakatlaridan ba'zilari o'zlarining rasmiy bayonotlarida BMT ustaviga asosan muayyan inson huquqlariga irqiy, jinsiy, til va diniy kamsitishlarsiz rioya qilinishini ta'minlashda davlat yurisdiksiyasini inkor etdilar.

Boshqa bir qator davlatlari esa, BMT Ustavining yuridik majburiyligini qo'llab quvvatlagan holda davlat suvereniteti tushunchasini o'zgarmas tushuncha sifatida shakllantirib, inson huquqlari sohasi butunlay davlatning ichki vakolati deb hisoblashlashlarini iddao qilishdi.

Inson huquqlarini himoya qilish va ularni tartibga solish borasida xalqaro huquq rolining oshishiga asosiy sabablardan biri Inson huquqlari umumjahon

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

deklaratsiyasi, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar va mazkur sohada boshqa xalqaro konvensiyalarning qabul qilinishi hisoblanadi.

Tadqiqotlardan birida keltirib o‘tilganidek, “1948-yildan so‘ng qabul qilingan 90 dan ortiq milliy konstitutsiyalar o‘zida deklaratsiya qoidalarini aks ettiradi va mazkur qoidalar uning ta’siri ostida kiritilgan”².

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt va uning Fakultativ protokoli BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda bir ovozdan qabul qilindi. Bu hujjatlar *Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi* va *1989-yilda qabul qilingan Ikkinci Fakultativ protokol* bilan bir xil darajaga ega bo‘lgan **Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro bill** deb nomlanadi.

Ushbu Paktlar ham Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslansa-da, ular tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hamda huquqlar bir biri bilan deyarli o‘xshash emas. Ikkala Paktda ham mustahkamlangan, biroq Deklaratsiyaga kiritilmagan eng muhim huquq - bu o‘zining tabiiy boyliklari va resuruslaridan erkin foydalangan holda o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt 1976-yil 3-yanvarda kuchga kirgan.

Pakt ko‘zda tutilgan huquqlarni hech qanday kamchiliklarsiz amalga oshirilishini nazarda tutadi. Pakt qatnashchilari – davlatlar, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS)ga davriy hisobotlar taqdim qiladilar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha Qo‘mita 18 ta mustaqil ekspertdan iborat bo‘lgan Paktni amalga oshirishda ko‘maklashish uchun Kengash tomonidan tashkil qilingan organ bo‘lib, ular hisobotlarni o‘rganadi va manfaatdor hukumat vakillari ishtirokida muhokama olib boradilar.

Ikkita asosiy xalqaro paktdan tashqari ulardagi huquq va erkinliklarning hamda asosiy g‘oyaning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan xalqaro hujjatlar mavjud bo‘lib, ushbu hujjatlarda inson huquqlari va erkinliklari nisbatan yanada aniqroq va kengroq ko‘rib chiqiladi. Yuqoridaqilardan tashqari yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qiluvchi xalqaro hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- ❖ Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (1989-yil);

² Jayawic Kagata. N. Hong Kong and the international protection of human rights // Human rights in Hong Kong, 1992. P. 160.

- ❖ Qiynoq hamda muomala va jazolshning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-yil);
- ❖ Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya (1965-yil);
- ❖ Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a’zolarini himoya qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya (1990-yil);
- ❖ Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (2006-yil) va boshqalar.

Qolaversa bir qator mintaqaviy xalqaro hujjatlar ham bo‘lib, ularga:

- ❖ 1948-yilgi Inson huquq va majburiyatlar Amerika deklaratasiysi;
- ❖ 1950-yilgi Yevropa Kengashi Inson huquq va erkinliklarining himoyasi to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi;
- ❖ 1960-yilgi Yevropa ijtimoiy xartiyasi;
- ❖ 1981-yilgi Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi;
- ❖ 1981-yilgi Inson huquqlari Umumislom Deklaratsiyasi;
- ❖ 1990-yilgi Islomda inson huquqlari Qohira deklaratasiysi;
- ❖ 1994-yilgi Inson huquqlari Arab xartiyasi va boshqalar kiradi.

Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmining mavjudligi davlatlar tomonidan inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha qo‘srimcha kafolatlarni yaratishga qaratilgandir.

Bundan tashqari, yuqorida sanab o‘tilgan xalqaro *Konvensiyalardan 1984-yilda qabul qilingan “Qiynoq hamda muomala va jazolshning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya”ni ham O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda Oliy Majlisning tegishli qarori bilan ratifikatsiya qilgan*. Ushbu xalqaro Konvensiyaning ham asosiy maqsadi inson huquqlarining buzulishiga yo‘l qo‘ymaslik hisoblanadi.

Bundan keyin o‘rib chiqadigan xalqaro Konvensiyamiz *1965-yilda qabul qilingan “Irqiy kamsitishning barcha turlarini yo‘q qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya bo‘lib, ushbu Konvensiya” ham 1995-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 129-I-sonli Qarori bilan ratifikarsiya qilingan* va ushbu Konvensiyaning qabul qilinishida ushbu Konvensiyaning ishtirokchi davlatlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomiga ko‘ra har bir insonga xos qadr-qimmat va tenglik prinsiplariga asoslangan holda va boshqa irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatishga qaratilgan xalqaro umume’tirof etilgan normalarga asoslangan holda ushbu Konvensiya qoidalari qabul qilindi.



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Ushbu o'rinda yuqorida sanab o'tilgan 2006-yil qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) Konvensiyaga ham to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi. Ushbu Konvensiya 2021-yil O'zbekiston Respublikasining 695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan bo'lib ushbu qonunning asosiy maqsadi Konvensiyaning 1-moddasida keltirib o'tilgan "Ushbu Konvensiyaning maqsadi barcha nogironlarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, ularning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilishni rag'batlantirishdan iborat.

Nogironlarga uzoq muddatli jismoniy, aqliy, intellektual yoki psixologik nuqsonlari bo'lgan shaxslar kiradi, ular turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, ularning jamiyatda boshqalar bilan teng ravishda to'liq va samarali ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin"³. Ushbu modda tahlilidan ko'rinish turibdiki, Konvensiyaning maqsadi barcha nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishini qo'llab-quvvatlash, himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, ularning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilishni rag'batlantirishdan iborat ekanligi keltirib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Rahbariy adabiyotlar:

- 1.1. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi" T.5. –T.: "O'zbekiston", 1997.
- 1.2. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi" T.: HMIYU, 2017. – 48.

II. Normativ huquqiy hujjatlar:

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- 2.2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 09.12.1992 yildagi 757-XII-sont.

III. Maxsus adabiyotlar:

- 3.1. Fayziyev, I. S. (2021). Yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning milliy va xalqaro-huquqiy assoslari. Scientific progress, 2(5), 259–266.

³ <https://glazunovcons.ru/images/pictures/glazunovcons/konvensiya.pdf>

IV. Xorijiy adabiyotlar:

4.1. Гасанов К.К., Несмелов П.В. О праве на неприкосновенность личной жизни // Вестник Московского университета МВД России. 2006. № 1. С. 15-16.

4.2. Петросян М.С. О праве на неприкосновенность частной жизни // Карта. 2006. № 35.

V. Xorijiy davlatlar normativ-huquqiy hujjatlari:

5.1. Rights, C. (1948). Universal declaration of human rights. General Assembly Resolution 217A III) of.

5.2. Rights, Cultural. "Universal declaration of human rights. General Assembly Resolution 217A III) of (1948).

5.3. <https://glazunovcons.ru/images/pictures/glazunovcons/konvensiya.pdf>.

VI. Elektron hujjatlar:

6.1. www.lex.uz.

6.2. www.onlinezakon.ru.

6.3. www.norma.uz.